



Current state and prospects for developing legal education and science in accordance with the "Uzbekistan – 2030" strategy

Rafik SHAKUROV¹

Training Institute for Lawyers

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

25 October 2025

Keywords:

Strategy of Uzbekistan – 2030,
legal education,
comparative jurisprudence,
LegalTech,
cybersecurity law,
international cooperation,
scientific research,
legal modernization,
rule of law,
innovative education.

ABSTRACT

This article extensively covers the development of legal education and science within the framework of the "Uzbekistan-2030" strategy. It substantiates the need to strengthen the harmony of theory and practice, introduce innovative disciplines into the curriculum, and develop comparative jurisprudence. The importance of expanding international cooperation and preparing students for the global legal space through joint programs was also emphasized. It is noted that the modernization of legal education and the implementation of scientific results are an important factor in further strengthening the principles of justice, legality, and humanism in Uzbekistan.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp30-35>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston – 2030 strategiyasiga muvofiq yuridik ta'lim va fanning hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

O'zbekiston – 2030
strategiyasi,
yuridik ta'lim,
qiyosiy huquqshunoslik,
LegalTech,
kiberxavfsizlik huquqi,
xalqaro hamkorlik,
ilmiy tadqiqotlar,
huquqiy modernizatsiya,
huquqiy davlat,
innovatsion ta'lim.

Ushbu maqolada "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yuridik ta'lim va fan sohasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda nazariya va amaliyot uyg'unligini kuchaytirish, innovatsion fanlarni o'quv dasturlariga kiritish, qiyosiy huquqshunoslikni rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo'shma dasturlar orqali talabalarni global huquqiy maydonga tayyorlash muhimligi ta'kidlangan. Huquqiy ta'limni modernizatsiya qilish va fan natijalarini amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonda adolat, qonuniylik va insonparvarlik tamoyillarini yanada mustahkamlashning muhim omili ekani qayd etilgan.

¹ Candidate of legal sciences, Associate Professor, Training Institute for Lawyers.

Современное состояние и перспективы развития юридического образования и науки в соответствии со стратегией «Узбекистан – 2030»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Стратегия Узбекистана – 2030, юридическое образование, сравнительное правоведение, LegalTech, право кибербезопасности, международное сотрудничество, научные исследования, правовая модернизация, правовое государство, инновационное образование.

В данной статье освещены вопросы развития юридического образования и науки в рамках Стратегии «Узбекистан – 2030». В ней обоснована необходимость усиления гармонии теории и практики, включения инновационных дисциплин в учебные программы, развития сравнительного правоведения. Также была подчеркнута важность расширения международного сотрудничества и подготовки студентов к глобальному правовому пространству посредством совместных программ. Отмечается, что модернизация правового образования и внедрение научных результатов в практику являются важным фактором дальнейшего укрепления принципов справедливости, законности и гуманизма в Узбекистане.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1] mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi va bu jarayonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, adolat va qonuniylikni ta’minlash, inson huquqlari kafolatini kuchaytirish eng muhim ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan. Buning uchun esa zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega, xalqaro mezonlar darajasida fikrlay oladigan, huquqiy sohada raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zarur. Chunki huquqiy madaniyati yuksak, zamonaviy texnologiyalardan xabardor, yangi avlod yuristlarisiz jamiyatning demokratik va iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur etib bo’lmaydi.

Ayni paytda mamlakatimizda yuridik ta’lim tizimi davlat va xususiy oliy o’quv yurtlari, malaka oshirish markazlari, akademik litseylar va turli o’quv dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Yuridik fan sohasida ham qator ilmiy tadqiqot institutlari, kafedralar va ilmiy jurnallar faoliyat yuritib, huquqiy islohotlarga nazariy asos yaratib bermoqda. Biroq, amaldagi tizimda yechimini kutayotgan bir qator muammolar ham mavjud: nazariy bilimning amaliyot bilan yetarli uyg’unlashmagani, ilmiy tadqiqotlarda innovatsion yondashuvning kamligi, xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi imkoniyatlarining cheklangani, yuridik fan natijalarini qonun ijodkorligi va davlat siyosatini belgilashda to’liq qo’llay olmaslik kabi holatlar bugungi kun talablariga to’liq javob bermaydi.

Hozirgi globallashuv sharoitida AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlar huquqiy ta’limni modernizatsiya qilish, LegalTech yo’nalishini rivojlantirish, sun’iy intellekt huquqi, kiberxavfsizlik huquqi kabi yangi fanlarni joriy etish orqali jahon bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlamoqda. O‘zbekistonda ham shunday yo’nalishni kuchaytirish orqali kelgusi o’n yillikda yangi huquqiy maktabni shakllantirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birgalikda amaliyotda bir qator kamchiliklar ham mavjud deb hisoblaymiz:

- nazariy bilimning amaliyot bilan yetarli uyg’unlashmagani;
- ilmiy tadqiqotlarda innovatsion yondashuvning kamligi;
- xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi imkoniyatlarining yetarli darajada emasligi kabilarni aytishimiz mumkin.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar yuridik ta’lim va fan sohasini yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi. Eng avvalo, yuridik ta’limni modernizatsiya qilish talab etiladi. Buning uchun o‘quv dasturlariga raqamli texnologiyalar, LegalTech, kiberxavfsizlik va sun‘iy intellekt huquqi kabi yangi fanlarni kiritish zarur. Masalan, AQSH va Yevropa universitetlarida bu fanlar huquqiy bilimning asosiy qismini tashkil etib, talabalarni nafaqat huquqiy normalarni bilishga, balki raqamli jamiyatda ularni amalga tatbiq etishga o‘rgatmoqda. O‘zbekistonda ham shunday yo‘nalish joriy etilsa, talabalar global huquqiy jarayonlarga tezroq moslasha oladi.

Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar va ikki diplomli ta’lim yo‘lga qo‘yilishi orqali yurtimiz talabalari xalqaro tajribadan to‘g‘ridan to‘g‘ri bahramand bo‘ladi. Masalan, Vengriya, Fransiya va Germaniyadagi huquq fakultetlari bilan o‘zaro tajriba almashish dasturlari tashkil etilsa, talabalar nafaqat bilim, balki xalqaro huquqiy fikrlash madaniyatini ham egallaydilar.

Yana bir muhim yo‘nalish – ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish. Ilmiy xulosalar faqat nazariyada qolib ketmasdan, qonun ijodkorligi va sud amaliyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak. Shuningdek, davlat organlari bilan universitetlar o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik kengaytirilishi orqali mamlakatimizdagi huquqiy islohotlarga mustahkam ilmiy asos yaratiladi.

Shuningdek, talabalar va tadqiqotchilar uchun rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muhim. Davlat grantlari, stipendiyalar, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatlari orqali ularning ilmiy salohiyati oshiriladi. Yosh olimlar uchun maxsus jamg‘armalar tashkil etish, ularning ilmiy ishlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali ilmiy faoliyat yanada kuchayishi mumkin.

Nihoyat, ilmiy natijalarning ochiqqligini ta‘minlash zarur. Elektron jurnallar va milliy huquqiy ma‘lumotlar bazalarida tadqiqotlarni keng tarqatish orqali nafaqat mahalliy, balki xalqaro jamoatchilik ham yurtimizdagi huquqiy izlanishlardan xabardor bo‘ladi. Bu jarayon O‘zbekiston ilmiy maktabining obro‘-e‘tiborini xalqaro maydonda yanada yuksaltiradi.

“Learning the Law” kitobi muallifi, huquqshunos olim Glanville Williamsning fikriga ko‘ra, “qonun jamiyatning poydevori va o‘zgarishlarning muhim vositasidir.” Huquqni bilish jamoat ishlarini tushunishni oshiradi. Uni o‘rganish ifodaning aniqligi, dalillarda qulaylik va yozilgan so‘zlarni talqin qilish mahorati, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Qonunni bilish har bir insonning asosiy burchidir. Qonunni bilmaslik aybsizlik emas va uni oqlab bo‘lmaydi. Shunday qilib, huquqiy ta’lim nafaqat yaxshi yuristlarni yetishtirish, balki inson qadriyatlari va inson huquqlari tushunchalari bilan sug‘orilgan, qonunlarga rioya qiluvchi madaniyatli fuqarolarni yaratish uchun ham zarurdir. [2] Nathan Roscoe Pound esa o‘z navbatida, yuridik kasb vakillarini “ilimli san‘at” bilan shug‘ullanuvchi, o‘qish va tadqiqotlarning yuqori sifatini hamda adolat yo‘lida fidoyilikni talab qiluvchi alohida kasb egasi sifatida ta’riflagan. [3]

“O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon bilan yuridik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha juda ko‘p yangiliklar joriy etilishi belgilandi. Xususan, qisqa vaqtda Samarqand, Namangan va Termiz davlat universitetlarida yuridik fakultetlar tashkil etildi. Farmonda yuridik fakultetlar ochilishi yuridik kadrlar tayyorlashda sog‘lom raqobatni vujudga keltiribgina qolmasdan, joylarda mahalliy yoshlarni o‘z hududlarida yuridik ta’lim olish imkoniyatini oshirishi ham ahamiyatlidir. [4]

Shuningdek, ushbu farmon bilan quyidagilar yuridik ta'lim va fanni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro yuridik tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash, o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirish, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash hamda o'quv bazasini modernizatsiyalash, klinik yuridik ta'limni rivojlantirish yo'li bilan o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash, rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish, axborot huquqiy texnologiyalar va tizimlarni (Legal Tech) ishlab chiqqan holda davlat va huquq sohasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish, "Elektron universitet" (E-University) tizimini joriy etgan holda ochiq, shaffof, subyektivlik va suiste'molchilikdan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish va TDYU va yuridik fakultetlarni xalqaro tan olingan ta'lim muassasalari reytingiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali milliy yuridik ta'lim raqobatbardoshligini hamda uning xalqaro o'rnini oshirish kabi masalalar ta'kidlangan edi. Akademik mobillikni ta'minlash maqsadida hamda ta'limni jahon standartlariga ko'tarish maqsadida so'nggi yillarda TDYU va 6 ta nufuzli xorijiy universitetlar o'rtasida hamkorlik ya'ni qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilib, shartnomalar imzolanib talabalar almashinildi. [5]

So'nggi yillarda kichik yuridik xodimlar tayyoyorlashga, yuridik xizmatlarni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan yuridik kollejlarning ham texnikum darajasiga o'tkazilishi hamda mazkur yuridik texnikumlarda ham 2020–2021 o'quv yilidan o'qitishning modul tizimi joriy etilishi ta'limga innovatsion yondashuvlardan biri bo'ldi [6]

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi" [7] ijrosi yuzasidan, yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o'rgatishga qaratilgan "Street law" guruhi tashkil etilgan edi. Ushbu o'tgan vaqtda aynan yuridik universitet hamda yuridik texnikumlarning faol talaba-o'quvchilari ushbu guruhlariga jalb etilmoqda. Yuridik universiteti va texnikum yoshlaridan tashkil topgan "Street law" volontyorlik guruhi a'zolari guruh kordinatorlari boshchiligida viloyat adliya boshqarmasi, viloyat prokuraturasi hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan hamkorlikda aholining ayniqsa maktab o'quvchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir targ'ibot ishlarini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qaroriga binoan tashkil etilgan Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, mamlakatimizda huquqiy davlatni barpo etish yo'lida muhim burilish nuqtasi bo'ldi hamda hamda "Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald" ilmiy amaliy elektron jurnali faoliyatining yo'lga qo'yilishi Institut faoliyatining maqtovg'a loyiq tomonlaridan biridir. [8]

Yuqoridagilardna kelib chiqib yuridik ta'lim va fanni rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Yuridik ta'limni modernizatsiya qilish.

Hozirgi raqamli asrda yuridik ta'limda an'anaviy nazariy fanlar bilan birga raqamli texnologiyalar, LegalTech, kiberxavfsizlik va sun'iy intellekt huquqi kabi yangi yo'nalishlarni kiritish juda dolzarbdir. Chunki iqtisodiyot va jamiyatning raqamlashuvi

turli huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda: elektron tijorat, intellektual mulkni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, kriptoaktivlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlar. Shu bois, yuridik kadrlarni bu sohalarga tayyorlamasdan turib, huquqiy davlat qurish qiyin.

2. Qiyosiy huquqshunoslik fanini kengaytirish.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti shu kabi boshqa oliy ta'lim muassasalarida "huquqshunoslik" fani o'rniga "Qiyosiy huquqshunoslik" fanini o'quv dasturiga kiritish lozim, chunki xalqaro maydonda faoliyat yurituvchi mutaxassislar faqat milliy qonunchilikni bilish bilangina cheklanib qolmay, turli huquqiy tizimlarning (kontinental, anglo-sakson, islom huquqi va boshqalar) farqlari va o'xshashliklarini anglab, global jarayonlarda huquqiy uyg'unlashuv va integratsiya jarayonlariga tayyor bo'lishlari lozim; bu nafaqat talabalarning huquqiy tafakkurini kengaytiradi, balki xalqaro tashkilotlar, biznes va diplomatiyada raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Huquqiy bilimda global standartlarni e'tiborga olish dolzarb, chunki milliy huquq tizimi xalqaro huquqiy munosabatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar, ikki diplomli ta'lim, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi orqali O'zbekiston yuristlari xalqaro tajribani o'zlashtirishi mumkin.

4. Ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish.

Yuridik fan natijalarini qonun ijodkorligi va sud amaliyotiga tatbiq qilish muhim. Bu orqali qonunlar zamon talabiga mos, hayotiy va samarali bo'ladi. Ilmiy xulosalarni inobatga olmasdan qabul qilingan qonunlar amaliyotda ko'p muammolarga olib kelishi mumkin.

5. Talabalar va tadqiqotchilar uchun rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.

Yuridik sohada raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun yoshlar va olimlarni rag'batlantirish zarur. Bu nafaqat ilmiy-amaliy izlanishlarni kuchaytiradi, balki yoshlar orasida huquqiy fanga qiziqishni oshiradi. Ilmiy natijalarning ochiqligini ta'minlash. Huquqiy tadqiqotlar faqat mahdud doirada qolib ketsa, ularning ahamiyati kamayadi. Shuning uchun ilmiy ishlar omma uchun ochiq va foydalanishga qulay bo'lishi shart. Bu nafaqat ilm-fan taraqqiyotini tezlashtiradi, balki amaliyotda qo'llanilishini ham osonlashtiradi.

XULOSA

Yuridik ta'lim va fan sohasini rivojlantirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi orqali mamlakatimizda adolat, qonuniylik va insonparvarlik prinsiplari yanada mustahkamlanadi. Yangi avlod yuristlari nafaqat milliy huquqiy tizimda, balki xalqaro huquqiy maydonda ham munosib o'rin egallaydi. Demak, zamonaviy huquqiy bilim va tajribaga ega, raqamli dunyo talablariga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislar tarbiyalash – kelajak taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Glanville Williams: Learning the Law. 293rd ed., Sweet & Maxwell/Thomson Reuters, 2016.
3. Pound, Roscoe. Jurisprudence published in 2000 by the Lawbook Exchange, Ltd. ISBN 1-58477-119-4.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2020-yildagi PF-5987-son <https://lex.uz/docs/-4802181>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2020-yildagi PF-5987-son <https://lex.uz/docs/-4802181><https://lex.uz/uz/docs/-5075894>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019-yildagi PF-5618-son <https://lex.uz/docs/-4149765>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.03.2025-yildagi 171-son <https://lex.uz/docs/-7437170>